

20-Aprel, 2025-yil

SHAXS HISSIY HOLATINI BAHOLASHIDA PROYEKTIV VA TEST METODLARINING O'RNI

Rustamov Narzillo Rahmon o`g`li

Buxoro xalqaro universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsnинг hissiy holatini aniqlashda qo'llaniladigan proyektiv va test metodlarining o'rni, ularning psixologik diagnostikadagi ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Hissiy holatlarni baholash inson ruhiy salomatligini aniqlashda, shuningdek, psixologik yondashuvlarni aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada asosiy e'tibor Rorschach testi, Luscher testi, TAT (Tematic Apperceptiv Test) kabi proyektiv usullarga, shuningdek, shaxsiylik va hissiy-intellekt testlariga qaratilgan. Bu metodlar orqali sub'ektiv holatlarni chuqur o'rganish imkoniyati yaratiladi.

Kalit so'zlar: hissiy holat, psixologik tahlil, proyektiv metod, test usuli, diagnostika, shaxs

Аннотация: В данной статье рассматривается роль проективных и тестовых методов в оценке эмоционального состояния личности, их значение и эффективность в психологической диагностике. Оценка эмоциональных состояний играет важную роль в определении психического здоровья человека и выборе адекватного психологического подхода. Особое внимание уделяется таким проективным методам, как тест Роршаха, тест Люшера, тематический апперцептивный тест (ТАТ), а также тестам на личностные особенности и эмоциональный интеллект. Эти методы позволяют глубоко изучать субъективное внутреннее состояние человека.

Ключевые слова: эмоциональное состояние, психологический анализ, проективный метод, тестирование, диагностика, личность

Annotation: This article explores the role of projective and test methods in assessing an individual's emotional state, highlighting their importance and effectiveness in psychological diagnostics. Evaluating emotional conditions is essential for determining mental health and selecting appropriate psychological interventions. The focus is on projective techniques such as the Rorschach Test, Luscher Color Test, and Thematic Apperception Test (TAT), as well as personality and emotional intelligence assessments. These tools provide deeper insight into subjective emotional experiences.

Keywords: emotional state, psychological analysis, projective method, testing, diagnostics, personality.

Psixologik diagnostika fan sifatida 1920-yillarda keng shakllana bordi. Shveytsariyalik psixolog va psixiatr H.Rorschach (1921)ning «Psixodiagnostika» asari nashr etilishi bilan psixodiagnostikaga asos solindi. Psixodiagnostika tushunchasi individni o'rganadigan barcha metodlar majmuini o'z ichiga oladi. Bu kitob nashr etilishi bilan psixologik diagnostika taraqqiyotida yangi davr boshlandi, u psixometriyadagi shaxsni

20-Aprel, 2025-yil

o‘rganish yangi metodlari bo‘lmish Proyektiv metodlar bilan bog’langan edi. Proyektiv psixologiya bir butun shaxsni o‘rganish mumkin emas, deb talqin qiluvchi psixometrik nuqtai nazar va bixevoirizmga qarshi e’tiroz bildiruvchi fan sifatida rivojlna boshladи.

Keyinchalik psixodiagnostikada yangi metodlar yaratilishi bilan birga birlashtirilgan (kombinatsiya qilingan) testlar qo‘llanila boshlandi. Masalan, aqlni o‘rganish metodlari orasida amerikalik psixolog D.Wechsler(1939, 1955)ning subtestlari keng tarqaldi. Yangi proyektiv metodlar ham yaratilib, keng foydalanila boshlandi. (Amerikalik psixolog G.Murray(1935, 1943)ning Tematik Appersepsion Testi (TAT), nemis psixolog S.Rosensweygning frustratsiyaga bo‘lgan reaksiyani o‘rganish bo‘yicha testi va boshqalar.) Shaxsiy savolnomalar (MMRI, 16 PF) keng tarqadi.

Proyektiv test motivatsiyaning anglanilmagan yoki to‘liq anglanilmagan shakllarini o‘rganishga qaratilgan va bu jihat bilan inson psixikasining tobora intim sohasiga kirishning yagona psixologik metodidir.

«Proyektiv» atamasi ilk bor Lourens Fenk tomonidan 1939 yilda qo‘llangan. Shuningdek, u shaxsni tadqiq etishning Proyektiv metodlari tasnifini ham keltiradi:

Strukturalash metodlari (Rorshaxning siyoh dog‘lari testi, bulutlar testi, uch o‘Icharnli proyeksiya testi). Konstruksiyalash metodikalari (MAR, olam testi).

Sharhlash metodikalari (SATO, TAT, Rene Jil testi).

To‘ldirish metodikalari (tugallanmagan gaplar, hikoyalari, One assotsiativ testi).

Katarsis metodikalari (psixodramma, proyektiv o‘yin).

Ekspressiyani o‘rganish metodikalari (dastxat, muloqot tahlili).

Ijod mahsulini o‘rganish metodikalari (rasmli testlar, yozma ishlar va hokazo).

Bunday metodikalarning asosiy xususiyati material aniqlasligi, xayrixohlik muhiti va qadriyatli fikrlar mavjud emaslidir. Ular, avvalo, shaxsning munosabatlar sohasini aks ettiradi va maktab nevrozi uchun xos bo‘lgan maxsus reaksiyalarni aniqlash imkonini beradi. Mazkur ishlar o‘quvchilarini maktab, kollej va litseylarda o‘qish jarayonida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o‘rganishga yo’naltirilgan bo‘lib, ularning individual xususiyatlarini, ta’lim va tarbiyadagi nuqsonlar sabablarini yoritishga yo’naltirilgan.

Psixodiagnostika ishlari guruhsda yakka holda o‘tkaziladi. Bu asosda amaliy psixologlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

Ongli maqsadi mavjud bolalar, umumta’lim maktablari va akademik litsey hamda kasb-hunar kolleji o‘quvchilarini, oliy o‘quv yurti talabalarining yosh davri taraqqiyoti mezonlariga muvofiqligini psixologik tekshiruvdan o‘tkazadi. Ularning kamolot darajasini belgilaydi. O‘quvchilarning kasbiy yaroqliligini diagnostika qiladi. Ularning hissiyotlari, irodaviy sifatlari, o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyati, intellektual darajasini tekshiradi.

Shaxs psixodiagnostikasida psixologiyaning barcha metodlaridan foydalanish mumkin, ya’ni kuzatish, eksperiment, test, suhbat, anketa, faoliyat natijalarini tahlil qilish, sotsiometriya metodlari. Ular orasida ko‘proq so‘rovnama va test metodlaridan foydalanish keng tarqalgan. Bolalar psixodiagnostikasi ixtiyorida faqat maxsus Proyektiv metodlar, ya’ni bolaning yutuqqa erishish motivlari va xavotirlanish holatlarini o‘rganish metodlari

20-Aprel, 2025-yil

mavjud shaxs sifatlarini baholashda ekspert baholash metodlaridan foydalanish mumkin. Bunda ekspert sifatida bolani yaxshi biladigan kattalar, tarbiyachilar, ota-onalar maydonga chiqadi. Faqat ana shunday tarzda bolaning shaxs sifatlariga baho bera olish imkoniyatlariga ega bo‘lamiz.

Proyektiv metodlar yordamida inson proyeksiyalarining psixologik mexanizmlari o‘rganiladi. G. S. Friman proyeksiyani:

- 1) Ongsizlik holati, yani insonning bu holatda boshqa kishilarning g’oya, qarash, istak, emotsiya yoki xarakter xislatlarini o‘ziga olishi sifatida;
- 2) O‘z shaxsiy ehtiyojiarini bo&hqlarga ko‘chirish sifatida;
- 3) Qandaydir tajribaga asoslangan noto‘g’ri xulosa chiqarish sifatida qaraydi.

Proyektiv metodlar tekshiriluvchini shunday holatga qo‘yadiki, bunda uning shaxsiy ehtiyojlari, uning o‘ziga xos idroki, tavsiflari va ko‘pgina xarakter xislatlari narnoyon bo‘ladi. Proyeksiya so‘zli assotsiatsiyalar,

tugallanmagan jumlalar, rasm va dog’lar, tekshiriluvchining chizgan rasmlari kabi verbal hamda rasmlı metodlarning barchasini qo’llaganda kuzatiladi.

Proyeksiya voqelikni, odamlarni, namoyon qilingan stimullarni idrok etish rnuayyan darajada shaxsning psixik bolati, ehtiyoj, motiv, ustanovkalariga asoslangan. Bunda voqelikni shaxsning psixik holati, ehtiyojlari, xususiyatlari mos ravishda tavsiflash tendensiyasi mavjud. Proyeksiya anglanmagan psixologik mexanizm hisoblanadi, ya’ni proyektsiya elementlari ongsiz tarzda idrok qilinadi.

Proyektiv metodikalarning asosiy. o‘ziga xos xususiyati foydalilaniladigan stimullarning ko‘p ma’noli, noaniq ekanligidir. Biroq, tekshiriluvchiga tavsija qilinadigan stimul (rasm, rang, dog’, verbal informatsiya bo‘lishidan qat’iy nazar) noaniq, ko‘p ma’noli ekanligiga qaramay ob’yektiv xarakterga ega va sub’yekt tomonidan yaratilgan obraz yoki yuzaga kelgan vaziyatga kiritiladigan muayyan xususiyatlarga ega. Olingan natijalar lekshiriluvchi shaxsi haqidagi bilimlar, uni psixologik jihatdan chuqr o‘rganish asosida, shuningdek, psixodiagnostikaning boshqa metodlarini qo’llagan holda tavsiflanishi zarur.

Proyektiv metodikalar tarixi 1904-1905 yillarda K.Yung tomonidan yaratilgan so‘zli assotsiatsiyalar testiga borib taqaladi. Bu metodikani yaratish biian Yung shaxsning ongsizlik holatidagi kechinmalarini assotsiativ diagnostika qilish mumkinligini ko‘rsatib berdi. Keyinchalik assoisiativ testning turli variantlar: aybdotlik hissini aniqlash (yolg’on detektori, M.Vertgaymer va L.R.Luriya), normani patologiyadan ajratish va boshqalar uchun qo’llanildi. Tugallanmagan hikoya yoki gap testi ham Yungning assotsiativ testidan kelib chiqqan deb hisoblanadi.

Proyektiv metodikalar (lot.projectio -oldinga otish)- proyektiv diagnostik nuqtai nazar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, shaxsni o‘rganishga yo’naltirilgan metodikalar majmuidir.

ADABIYOTLAR:

1. Z. Nishanova, D.Qarshieva, N.Atabaeva, Z.Qurbanova Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya Darslik, Toshkent-2015, 443 B.

20-Aprel, 2025-yil

2. Elov, Z. (2023). ЎСМИР ШАХСИДА ДЕЛИКВЕНТ АҲЛОҚ-ДЕВИАНТ ХУЛҚАТВОРНИНГ ШАКЛИ СИФАТИДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (*buxdu. uz*), 40(40).
3. Elov, Z. (2023). ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРЛИ ЎСМИРЛАР МУАММОСИННИНГ ИЛМИЙ АСОСЛАРИ ҲАҚИДА ПСИХОЛОГИК ЁНДАШУВЛАР ВА ТАҲЛИЛЛАР. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (*buxdu. uz*), 40(40).
4. Elov, Z. (2023). ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРЛИ ЎСМИРЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛАЁТГАН НОҚОНУНИЙ ХАТТИ-ҲАРАКАТЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК САБАБЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (*buxdu. uz*), 40(40).
5. Elov, Z. (2023). PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DETERMINING AND CORRELATING MOTIVATION FOR SUICIDAL TENDENCIES IN ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (*buxdu. uz*), 40(40).
6. Elov, Z. (2023). O'Z JONIGA QASD QILISH DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLARDA PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (*buxdu. uz*), 40(40).
7. Elov, Z. (2023). ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРЛИ ЎСМИРЛАРДА СУИЦИДАЛ АҲЛОҚ ПСИХОЛОГИЯСИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (*buxdu. uz*), 40(40).
8. Elov, Z. (2023). СОЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА САМОУБИЙСТВА У ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (*buxdu. uz*), 40(40).
9. Elov, Z. (2023). O 'SMIRLIK DAVRI INQOROZLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (*buxdu. uz*), 35(35).
10. Elov, Z. (2023). VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINI OLDINI OLISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK SABABLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (*buxdu. uz*), 34(34).
11. Элов, З. С. (2023). DEVIANT XULQ-ATVORLI O 'SMIRLARDA SUITSIDIAL HOLATLARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR: Elov Ziyodullo Sattorovich Buxorodavlat universiteti, Psixologiya va sotsiologiya kafedrasи dotsenti, Psixologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori (PhD). *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (10), 325-328.
12. Elov Z.S. [Sud psixologik ekspertizasi tarixi rivojlanish jarayoni bosqichlari.](#) PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – ТОМ 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 306-313
13. Z.Elov. [Социально-психологические причины формирования девиантного поведения у подростков.](#) Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. 2024
14. Z.S.Elov. [Zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi.](#) Pedagogik akmeologiya. Ilmiy jurnal 5/3. 2024

20-Aprel, 2025-yil

15. Элов Зиёдулло, Я. САМИНЖНОНОВ. Ўсмирлар орасида ўз жонига қасд килиш ҳолати психологияк муаммо сифатида. 2024. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (2), 69-78
16. Z.Elov. Identifikasiya jarayoni muammosining psixologiyada o‘rganilishi. ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI. Ilmiy konferensiya to‘plami. 2023
17. Z.Elov. O‘z joniga qads qilish masalasi jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (12), 50-54
18. Z.Elov. Shaxsda fobiya holati va uning diagnostikasi. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (11), 66-74
19. Z.Elov. Suitsidial xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (10), 11-22
20. Z.S.Elov. Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o‘rganilishi: tahlillar va nazariyalar. 2023. Science and Education 4 (10), 326-342